| Kasbiy ta'lim tashkilotlarida malakaviy amaliyotni samarali tashkil etishni<br>takomillashtirishning ahamiyati .....                                              | 1576 |
| <i>Baqoyev Olim Jtayeovich</i>                                                                                                                                    |      |
| Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda<br>ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi .....                                  | 1580 |
| <i>Dustmaxmat Tashmatovich Bakiyev, O'ktam Eshtemirovich Xo'janazarov, Nazira Ochilovna Ro'ziyev</i>                                                              |      |
| Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish<br>tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar .....    | 1588 |
| <i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>                                                                                                                           |      |
| Oliy ta'limda kompetenyaga asoslangan o'qitish modellari .....                                                                                                    | 1591 |
| <i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehro</i>                                                                                                         |      |
| Onlayn qimor o'yinlariga tobelikning iqtisodiy soha xodimlari mehnat samaradorligiga ta'siri .....                                                                | 1598 |
| <i>Fatidinova Dildora Murodjanovna</i>                                                                                                                            |      |
| Noverbal aloqa vositalarining psixolingvistik xususiyatlari .....                                                                                                 | 1602 |
| <i>Ismailova Oygul Sabirbayevna</i>                                                                                                                               |      |
| Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va<br>innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo'llari .....            | 1605 |
| <i>Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi, Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich, Muhammadiyeva Elmera Normurodovna</i>                                                        |      |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali muloqotning<br>dolzarb muammolari, imkoniyatlari va yechimlari .....                        | 1609 |
| <i>Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi</i>                                                                                                                             |      |

|                                                                                                                                                              |      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Oliy ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarning jismoniy faolligi muammosi.....                                                                       | 1614 |
| <i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>                                                                                                                   |      |
| Ingliz tilida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish.....                                                 | 1619 |
| <i>Mamaziyojeva Orzixon Odiljon qizi</i>                                                                                                                     |      |
| Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda pedagogik mahoratning ahamiyati .....                                                                       | 1622 |
| <i>Muhamadijeva Nargiza Qudratovna</i>                                                                                                                       |      |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirish metodikasi....                                               | 1626 |
| <i>Murodullayeva Dilsora Ilhom qizi</i>                                                                                                                      |      |
| Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha loyiha ishlarini tashkil etish..... | 1629 |
| <i>Musayeva Umida Xolmatjonovna</i>                                                                                                                          |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish texnologiyasi.....                                                                   | 1633 |
| <i>R. R. Zulfiqorov</i>                                                                                                                                      |      |
| Maktabgacha ta'limda dual ta'lim shaklini joriy etishning afzalliklari.....                                                                                  | 1639 |
| <i>Razoqova Hosilaoy Anvarovna</i>                                                                                                                           |      |
| Pedagogik ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarni faollashtirishning didaktik xususiyatlari .....                                                     | 1642 |
| <i>Ruziyev Shuxrat Islamovich</i>                                                                                                                            |      |
| Oliy ta'lim talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash omillari.....                                                                                       | 1647 |
| <i>Sunnatov Zafar Ubaydullayevich</i>                                                                                                                        |      |
| Maktabgacha yoshdagi tanglay kamchiliklariga ega bo'lgan (rinolaliya) bolalarning nafas va motorikasini rivojlantirishning samarali yo'llari .....           | 1651 |
| <i>Tadjixodjayeva Feruza Orifovna</i>                                                                                                                        |      |
| The Role of Circles in Teaching English to Future Primary School Teachers.....                                                                               | 1654 |
| <i>Turdikulova Bonu Otabek qizi</i>                                                                                                                          |      |
| Tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va zamonaviy yondashuvlar.....                                                       | 1657 |
| <i>Tursunova Sevarxon Umarovna</i>                                                                                                                           |      |
| Xilvatiy ijodi va uning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                                                                       | 1661 |
| <i>Usmonova Anora</i>                                                                                                                                        |      |
| Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorij amaliyoti .....                                                                                                   | 1664 |
| <i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>                                                                                                                           |      |
| 3-4-sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda mnemotexnikadan foydalanish metodikasi.....                                                  | 1667 |
| <i>Usmonova Odinaxon Sobirovna</i>                                                                                                                           |      |
| Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari .....                                                  | 1670 |
| <i>Xo'jayorova Munira Samadovna</i>                                                                                                                          |      |
| O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (texnologiya fani misolida) .....      | 1674 |
| <i>Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna</i>                                                                                                                      |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy rivojlanishining ahamiyati .....             | 1678 |
| <i>Yuldasheva Feruza</i>                                                                                                                                     |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllarni o'rgatish orqali nutqiy kompetentligini rivojlantirish ..                                              | 1681 |
| <i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Qodirova Mubinaxon Zuxriddin qizi</i>                                                                                     |      |
| Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari .....                                                         | 1684 |
| <i>Abdulfattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi</i>                                                                                                          |      |
| Периодизация процесса совершенствования воспитательной роли женщины в Центральной Азии .....                                                                 | 1688 |
| <i>Саидова Барно Нарзуллаевна</i>                                                                                                                            |      |
| Jinoyat protsessida tergov organi rahbari tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari .....                                                                    | 1693 |
| <i>Shohruh Xalilov</i>                                                                                                                                       |      |
| Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni tadqiq qilishning psixologik jihatlari .....                                                                          | 1698 |
| <i>Amirova Nazokat Uroq qizi</i>                                                                                                                             |      |
| Raqamli pedagogik muhitda vizual modellashirish asosida Richpeace Cad dasturini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....                                 | 1702 |
| <i>Asrorova Saodat Abdullo qiz</i>                                                                                                                           |      |
| Umumiy ta'lim maktablarida sun'iy intellektni qo'llash.....                                                                                                  | 1707 |
| <i>Atabaeva Baxitli Jaxanshaevna</i>                                                                                                                         |      |



|                                                                                                                                    |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarida profilaktik muhitni shakllantirishning pedagogik asoslari .....  | 1710 |
| Bayjanov Babil Bahodirovich                                                                                                        |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati .....                       | 1715 |
| Bobolov Nuriddin Tojiyevich                                                                                                        |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ..... | 1718 |
| Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi                                                                                                    |      |
| Maktabda steam loyihalari asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish .....                                    | 1721 |
| G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Turdiyeva Barchinoy Bobirovna                                                                       |      |
| O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanishida o'ziga bo'lgan munosabatning ta'siri .....                          | 1726 |
| G'aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi                                                                                             |      |
| Trigonometrik funksiyalarning qo'shish formulalarini isbotiga doir masalalar .....                                                 | 1731 |
| H. Tadjimatova                                                                                                                     |      |
| Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va islohatlar (1991–2024-yillar) .....                            | 1734 |
| Hafiza Botirova Ravshan qizi                                                                                                       |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'рни va zamonaviy usullari .....           | 1737 |
| Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi                                                                                                   |      |
| Ayollar uchun "shisha shift" sindromi: sabablari, oqibatlari va uni yengish strategiyasi .....                                     | 1740 |
| Karimova Maftuna Vohidovna                                                                                                         |      |
| 5-6 yoshlik bolalarda refleksiv tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar .....                          | 1744 |
| Karshiyeva Shahnoza Turakulovna                                                                                                    |      |
| O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili ..... | 1747 |
| Madaminova Gulzira Gulamkadirovna                                                                                                  |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar orqali ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi .....                            | 1752 |
| Madaminova Sarvigul Anvarxo'ja qizi, Qurbonova Baxtixon                                                                            |      |
| Integratsiyalashgan ona tili fanining muammo va yechimlari .....                                                                   | 1755 |
| Mamarajabova Ozoda Zokir qizi                                                                                                      |      |
| Maxmudxo'ja Behbudiy asarlarida ma'rifiy qadriyatlarning yoritilishi .....                                                         | 1758 |
| Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna                                                                                                      |      |
| Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish .....                       | 1763 |
| Quvvatova Mohira Hikmatilayevna                                                                                                    |      |
| Bo'lajak pedagoglarda kouching texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish .....                                                | 1766 |
| S. E. Kabulova                                                                                                                     |      |
| Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari .....                                   | 1772 |
| Shamuratov Marat Xalmuratovich                                                                                                     |      |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari .....                                            | 1776 |
| Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna                                                                                                  |      |
| Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish .....                                                 | 1779 |
| Sultonova Shohida Muxtor qizi                                                                                                      |      |
| Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari .....                                 | 1783 |
| Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna                                                                                                  |      |
| Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari .....                      | 1786 |
| Tashpulatov Farxad Alisherovich                                                                                                    |      |
| Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar .....                                  | 1791 |
| Turdiyev Azamat Gayratovich                                                                                                        |      |
| Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari .....                                               | 1794 |
| Yusupova Xabiba Iriskulovna                                                                                                        |      |
| Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari .....                                                                   | 1797 |
| Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi                                                              |      |
| Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению .....             | 1799 |
| Маханова Малика Жумабек кизи                                                                                                       |      |
| Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО .....                                                   | 1803 |
| Умурзакова Умида Наримановна                                                                                                       |      |

|                                                                                                                                                               |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного<br>возраста на основе национальных традиций и ценностей .....                              | 1807 |
| <a href="#">Хуррамова Гузал Равшановна</a>                                                                                                                    |      |
| Globallashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini<br>rivojlantirish muammolari va yechimlari .....                           | 1810 |
| <a href="#">Norov Nodir Jo'rayevich</a>                                                                                                                       |      |
| Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va<br>mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi .....                             | 1814 |
| <a href="#">Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</a>                                                                                                           |      |
| Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning<br>innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ..... | 1818 |
| <a href="#">Xaqberdiyeva Sh. T.</a>                                                                                                                           |      |
| Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati .....                                                          | 1823 |
| <a href="#">Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</a>                                                                                                                 |      |
| Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri .....                                                                                                   | 1826 |
| <a href="#">Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi</a>                                                                                 |      |
| Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik<br>tizimini takomillashtirish .....                                         | 1829 |
| <a href="#">Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna</a>                                                                                                             |      |
| Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni .....                                                                              | 1833 |
| <a href="#">Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna</a>                                                                                |      |
| Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir .....                                                                    | 1836 |
| <a href="#">D. Teshaboyev, Z. Boymatova</a>                                                                                                                   |      |



Asrorova Saodat Abdullo qiz  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
"Texnologik ta'lim" kafedrası tayanch doktoranti

## RAQAMLI PEDAGOGIK MUHITDA VIZUAL MODELLASHTIRISH ASOSIDA RICHPEACE CAD DASTURINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

ORCID: 0009-0003-5158-6478

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli pedagogik muhit sharoitida Richpeace CAD dasturidan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritiladi. XXI asrning raqamli transformatsiyasi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning chuqur integratsiyasini talab qilmoqda. Zamonaviy ta'limda vizual modellashtirish, raqamli dizayn va kompyuterda loyihalash tizimlari o'quvchilar va talabalarning grafik savodxonligini, ijodiy izlanish faoliyatini va muhandislik tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada Richpeace CAD dasturining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari, uning ta'limiy afzalliklari, o'quvchi faoliyatiga ta'siri, vizual idrok va "learning by doing" tamoyili asosida bilimni konstruktiv shakllantirish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, Dewey, Piaget va Vygotskiy kabi olimlarning pedagogik qarashlari asosida raqamli modellashtirishning psixologik-didaktik mohiyati ochib beriladi.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalar, mahalliy tadqiqotchilar ishlari ham o'rganilgan. Tadqiqot natijasida Richpeace CAD asosida vizual modellashtirish, gamifikatsiya va mobil ta'lim elementlarini birlashtirgan integrativ metodik model taklif etiladi. Mazkur model "mastery learning", bosqichma-bosqich o'zlashtirish, refleksiya va amaliy modellashtirish orqali talabalarning mustaqil dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli pedagogik muhit, Richpeace CAD, vizual modellashtirish, raqamli ta'lim, innovatsion metodika, CAD tizimlari, gamifikatsiya, mobil ta'lim, dizayn o'qitish, raqamli kompetensiya, konstruktorlik, pedagogik texnologiyalar.

**Abstract:** This article examines the issue of improving teaching methodology through the use of Richpeace CAD software within the context of a digital pedagogical environment. The digital transformation of the 21st century requires the deep integration of innovative technologies into the educational process. In modern education, visual modelling, digital design and computer-aided design (CAD) systems play a crucial role in developing students' graphical literacy, creative inquiry skills and engineering thinking. The article analyzes the didactic capabilities of Richpeace CAD, its pedagogical advantages, its influence on learners' activities and the constructive formation of knowledge based on visual perception and the "learning by doing" principle.

The psychological and didactic nature of digital modelling is revealed through the pedagogical views of John Dewey, Jean Piaget and Lev Vygotsky. National concepts for developing digital competencies in Uzbekistan's education system and relevant local research are also reviewed. As a result, an integrative methodological model is proposed, combining visual modelling, gamification and mobile learning based on Richpeace CAD. This model contributes to the development of students' independent design skills through mastery learning, step-by-step knowledge acquisition, reflection and practical modelling.

**Key words:** digital pedagogical environment, Richpeace CAD, visual modelling, digital education, innovative methodology, CAD systems, gamification, mobile learning, design instruction, digital competence, construction, pedagogical technologies.





**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема совершенствования методики обучения с использованием программы Richpeace CAD в условиях цифровой педагогической среды. Цифровая трансформация XXI века требует глубокой интеграции инновационных технологий в образовательный процесс. В современном образовании визуальное моделирование, цифровой дизайн и системы компьютерного проектирования играют важную роль в формировании графической грамотности, творческой исследовательской деятельности и инженерного мышления учащихся и студентов. В статье анализируются дидактические возможности программы Richpeace CAD, её образовательные преимущества, влияние на деятельность обучающихся, а также процессы конструктивного формирования знаний на основе визуального восприятия и принципа “learning by doing”.

Кроме того, раскрывается психолого-дидактическая сущность цифрового моделирования на основе педагогических взглядов Дж. Дьюи, Ж. Пиаже и Л. С. Выготского. Изучены концепции развития цифровых компетенций в системе образования Узбекистана и исследования отечественных учёных. В результате исследования предлагается интегративная методическая модель, объединяющая визуальное моделирование, геймификацию и мобильное обучение на базе Richpeace CAD. Данная модель способствует формированию самостоятельных дизайнерских навыков студентов через механизмы “mastery learning”, поэтапного усвоения, рефлексии и практического моделирования.

**Ключевые слова:** цифровая педагогическая среда, Richpeace CAD, визуальное моделирование, цифровое образование, инновационная методика, системы CAD, геймификация, мобильное обучение, преподавание дизайна, цифровая компетентность, конструирование, педагогические технологии.

## KIRISH

Hozirgi rivojlanib borayotgan texnika asrida loyihalar va chizmalar asosida ko'plab yangiliklar bunyod etilmoqda. Turli dizayndagi modellar, bino-inshootlar hamda ishlab chiqarish uchun dastgohlar ishlab chiqilmoqda. Bilamizki, bunday loyihalarni amalga oshirish uchun kuchli mutaxassis, kuchli muhandis va loyihalovchi bo'lish zarur. XXI asr axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan davrdir. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish uchun inson kapitalining ta'siri endi yetarli emas – ta'lim muhitini o'zgartirish, nafaqat mehnat resurslarining o'qitish hajmini oshirish, balki ta'lim mazmuni, uning usullari, vositalari va muhitlarini sifat jihatidan yangilash, innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish zarur.

Fan va texnika yuksak taraqqiy etib borayotgan hozirgi sharoitda umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseyar va oliy ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-talabalarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar berish bilan bir qatorda, har bir soha bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini muntazam ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashib, muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlay oladigan, ularni tahlil qila oladigan hamda sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'limning yuqoridagi bosqichlarida har bir fan bo'yicha o'quv jarayonini uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida tashkil etish pedagoglar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Boshqa fanlar qatori “Kiyimni kompyuterda loyihalash” fani ham o'quvchi-talabalarining chizmalarini o'qish, kiyimni kompyuterda chizish, tahlil qilish va loyihalash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada o'quvchi-talabalarda loyihalovchi dasturlarni chuqur bilish, bilimlarni faollashtirish, loyihalashga oid muammolarni yechish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur. Bunday vazifalar talabalarining amaliy bilimini, grafik savodxonligini hamda bilish faoliyatini mustahkamlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi yetarli darajada ta'minlanmagani, talabalarining malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida samarali tashkil etilmagani oqibatida bitiruvchilarning aksariyati tayyor mutaxassis bo'lib chiqmayotgani, ishga joylashgach esa o'z kasbini qaytadan o'rganishga majbur bo'layotgani, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarining zamonaviy talablarga javob bermasligi, ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi qayd etilgan. Pedagogik amaliyotni o'tkazish bo'yicha dasturiy ta'minotning zamonaviy talablarga mos emasligi, amaliyotni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning samarali metodlaridan yetarli foydalanilmayotgani, amaliyot natijalarini baholash tizimi to'liq ishlab chiqilmagani kabi omillar amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda innovatsion yondashuv zarurligini taqozo etadi.

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga – raqamli sivilizatsiya davriga qadam qo'ydi. Bu davrning asosiy belgisi inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarida, xususan ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning chuqur integratsiyasi hamda interfaol muhitlarning shakllanishidir. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi o'quv jarayonlarini faqat bilim yetkazish emas, balki raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, vizual modellashtirish orqali innovatsion g'oyalarni yaratish maydoniga aylantirmoqda. Shu sababli “raqamli pedagogik muhit” tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi.



Raqamli pedagogik muhit (RPM) – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni raqamli texnologiyalar, virtual platformalar va sun'iy intellekt tizimlari orqali amalga oshiruvchi integratsiyalashgan ta'lim tizimidir. RPM nafaqat o'quv jarayonining texnik vositalarini, balki didaktik yondashuvni, o'qituvchi va talaba faoliyatining mazmunini ham o'zgartiradi. Bu muhitda bilim olish, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyat uyg'un holda kechadi. Shu bois, bugungi ta'lim tizimida raqamli pedagogik muhitning asosiy komponentlarini tahlil qilish va unga mos o'qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda dunyo miqyosida "Industry 4.0", "Digital Education Ecosystem", "STEAM-learning" kabi konsepsiyalar ta'lim jarayoniga jadal tatbiq qilinmoqda. Jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari (MIT, Stanford, TU Delft, Seoul National University va boshqalar) raqamli ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilish orqali o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ham aynan shu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, unda ta'lim tizimining raqamli ekotizimini yaratish, o'qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga mos tayyorlash masalalari alohida ta'kidlangan. Oliy ta'lim tizimida bu jarayonlar pedagogik innovatsiyalar, vizual modellashtirish texnologiyalari va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi dasturiy vositalar orqali amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Richpeace CAD dasturi hozirgi davrda texnologik ta'lim, dizayn, konstruktorlik va moda sohalarida keng qo'llanilayotgan ilg'or raqamli vositalardan biri hisoblanadi. U nafaqat kiyim va to'qimachilik buyumlarini modellashtirish uchun, balki o'quvchilarning analitik fikrlash, muhandislik tafakkuri va estetik qarashlarini shakllantirish uchun pedagogik vosita sifatida ham samaralidir.

Richpeace CAD tizimi orqali o'qitish nafaqat texnik topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi, balki o'quvchi tafakkurini "vizual o'rganish", "grafik idrok" va "modellashtirish orqali fikrlash" tamoyillariga yo'naltiradi. Shu sababli, ushbu dasturdan samarali foydalanish uchun pedagogik-psixologik yondashuvlar, didaktik model va metodik tizim ishlab chiqish zarur bo'lib, bu esa ilmiy tahlil, tajriba va nazariy asosga tayanishni talab qiladi. Raqamli pedagogik muhit va vizual modellashtirish asosida o'qitish metodikasi masalasi bugungi ta'lim tizimida eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir. XX asrning so'nggi choragidan boshlab ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyalari kirib kelgan bo'lsa, XXI asr boshlarida bu jarayon to'liq raqamli ekotizimga aylana boshladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dizayn va vizual modellashtirish dasturlarini o'qitishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Raqamli pedagogik muhit masalasida John Dewey (1938) "Experience and Education" asarida ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki faol tajriba orqali o'rganish deb talqin etadi. Dewey ilgari surgan "learning by doing" (amal orqali o'rganish) tamoyili zamonaviy raqamli modellashtirish metodikasining g'oyaviy asosini tashkil etadi. Richpeace CAD dasturi ham o'quvchilarning o'z tajribasi asosida o'rganishiga imkoniyat yaratadi – ya'ni ular har bir dizayn elementini mustaqil yaratadi, tahrirlaydi, tekshiradi va yakuniy natijani vizual baholaydi.

Jean Piaget (1950) "The Psychology of Intelligence" asarida bilish jarayonini "kognitiv konstruktivizm" asosida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, o'quvchi o'z bilimini o'zi "quradi". Raqamli pedagogik muhitda bu yondashuv Richpeace CAD kabi dasturlar orqali yanada faol namoyon bo'ladi: talaba tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki o'zi dizayn modellarini yaratadi, xatolarini tuzatadi va o'z-o'zini refleksiya qiladi.

Lev S. Vygotsky (1986) "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini asoslab, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni bilim rivojining markazi sifatida ko'rsatadi. Bu nazariya raqamli pedagogik muhitda ayniqsa muhim, chunki Richpeace CAD dasturida o'qituvchi "axborot manbai" emas, balki "fasilitator" – yo'naltiruvchi va hamkor sifatida qatnashadi. O'zbekiston olimlari ham raqamli ta'lim va dizayn o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

To'xtayeva Zebo Sharifovna (2022) "Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida dizayn o'qitish metodikasi" asarida dizayn yo'nalishida o'quvchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologik yondashuvlarning zarurligini asoslaydi. Unga ko'ra, texnologik ta'limda innovatsion muhitni yaratish – o'quvchi faoliyatining ijodiy komponentini faollashtirishning asosiy omilidir. Rahmatova Barnogul Karimjonovna (2023) o'z tadqiqotida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy izlanuvchanlikni rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim metodlari, integrativ mashg'ulotlar va loyiha asosidagi o'qitish usullarini taklif etadi. U, shuningdek, talabalarni raqamli kompetensiya jihatidan baholash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqqan.

Djalolova D.A. "Kasbiy ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning psixopedagogik jihatlari" asarida raqamli texnologiyalar talabalarda o'z-o'zini baholash, o'zaro taqqoslash va refleksiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydi. Ushbu jihatlar Richpeace CAD dasturining pedagogik jarayondagi psixopedagogik afzalliklarini yoritishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-martdagi 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Raqamli ta'lim konsepsiyasi"da o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini


1 Vilalta-Perdomo, E. (2022). Integrating Industry 4.0 in Higher Education Using Challenge-Based Learning: An Intervention in Operations Management. Education Sciences, 12(10), 663. MDPI.



rivojlantirish, o'quv jarayonida vizual texnologiyalardan keng foydalanish hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan maqsadlar, ayniqsa texnologik ta'lim yo'nalishida raqamli dizayn, modellashtirish va amaliy muhandislik dasturlaridan samarali foydalanish zarurligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida "Kompyuterda loyihalash tizimlari (CAD – Computer Aided Design)"ning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimlar ichida Richpeace CAD dasturi texnologik ta'lim, dizayn va tikuvchilik yo'nalishidagi fanlarda eng qulay, o'quvchi markazli interfeysga ega bo'lgan platformalardan biri hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Richpeace CAD dasturi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, balki pedagogik maqsadlarda – o'quv mashg'ulotlarini vizual, interfaol va bosqichma-bosqich shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu jihatdan u nafaqat texnik, balki ta'limiy-didaktik dastur sifatida ham o'rganishga arziydi.



1-rasm: Richpeace CAD dasturi

Richpeace CAD dasturi o'zining texnologik imkoniyatlari bilan boshqa o'xshash tizimlardan farq qiladi. Gerber CAD, Optitex va CLO3D tizimlarida 3D modellashtirish asosan ishlab chiqarish jarayonini simulyatsiya qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, Richpeace CAD ta'lim uchun qulay interfeysga ega. Uning afzalliklari murakkab texnologik chizmalarni oson tahrirlash imkoniyati, naqsh va andozalarni avtomatik generatsiya qilish, real vaqt rejimida material va rang tahlili, ta'lim jarayonida masofaviy hamkorlik imkoniyatidan iborat. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda Richpeace CAD dasturining o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar nisbatan kam. Asosan texnik yo'nalishdagi ishlanmalar mavjud bo'lib, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapurda ishlab chiqilgan Richpeace Education Platform shular jumlasidandir. Ammo ularning ko'pchiligi pedagogik komponentni – ya'ni o'qitish metodikasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilmagan. Yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'limning rivojlanishi, vizual modellashtirish texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi hamda dizayn yo'nalishidagi dasturiy vositalarning, jumladan Richpeace CAD tizimining samarali qo'llanishi o'qitish metodikasini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Richpeace CAD dasturining pedagogik komponenti yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan, asosan texnik yo'nalish bilan chegaralanganligi aniqlanadi.

Bu holat o'z navbatida yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, talabalar o'quv jarayonida raqamli vositalardan mustaqil foydalanish, vizual idrok orqali o'rganish va refleksiya asosida tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish ehtiyoji sezilmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda Richpeace CAD dasturini o'qitishda vizual modellashtirish, gamifikatsiya va mobil ta'lim texnologiyalarini birlashtiruvchi integrativ metodika ishlab chiqish taklif etiladi. Mazkur yondashuvda Richpeace CAD uchun mobil ilova konsepsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Ilova nafaqat o'quv darsliklari va test modullarini, balki talabalarni bosqichma-bosqich yangi mavzularni o'zlashtirishga yo'naltiruvchi "mastery learning" tamo-



yiliga asoslangan didaktik mexanizmni o'z ichiga oladi. Bunday tizim o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol dizaynerga aylantiradi; har bir mavzudan so'ng talaba test topshiriqlarini bajaradi, amaliy mashg'ulot sifatida bir kiyim detalini modellashtiradi va faqat oldingi bosqichni muvaffaqiyatli yakunlagandan so'nggina keyingi darsga o'tish imkoniga ega bo'ladi. Shu jarayonda o'yin elementlari – ball, badge, reyting – orqali o'quv motivatsiyasi saqlanadi, ta'lim jarayoni interfaol, qiziqarli va samarador bo'ladi. Shundan kelib chiqib, Richpeace CAD dasturini o'qitish jarayoniga raqamli pedagogik muhit va vizual modellashtirish konsepsiyalarini birlashtiruvchi yangi metodik model joriy etish g'oyasi ilgari surildi. Ushbu model talabalarning amaliy faoliyatini mustaqillikka, tahliliy tafakkurga va ijodiy izlanishga yo'naltirishga qaratilgan. Mazkur metodikaning yangiligi shundaki, u o'quvchilarning raqamli fikrlashini faollashtiruvchi mobil ilova orqali Richpeace CAD dasturining o'quv jarayoniga integratsiyasini nazarda tutadi. Mobil ilova o'zida nazariy o'rganish bosqichi (Richpeace CAD dasturiga oid modulli darsliklar, videodarslar va interaktiv ko'rsatmalar orqali dastlabki bilim berish), mustahkamlash bosqichi (har bir mavzudan so'ng avtomatik testlar orqali o'zlashtirish darajasini baholash), amaliy modellashtirish bosqichi (talaba dasturda kiyim detalini yaratib, uning o'lchovlarini belgilaydi, loyiha ko'rinishi va andazalar joylashmasini tahlil qiladi), rivojlantiruvchi bosqich (mastery learning tamoyili asosida yangi bosqichga o'tish uchun oldingi topshiriqlarni to'liq bajarish zarurati) va refleksiya bosqichi (o'quvchi o'z faoliyati yuzasidan baho olib, o'zini tahlil qiladi va o'qituvchidan shaxsiy fikr-mulohaza oladi) kabi pedagogik bosqichlarni mujassam etadi. Bu yondashuvda o'quvchi darsni o'yin shaklida o'rganadi, har bir bosqichni to'g'ri bajarish natijasida yangi mavzular ochilib boradi. Shu orqali ta'lim jarayoni o'yin muhiti asosida tashkil etilib, darsning qiziqarli va samarador bo'lishi ta'minlanadi; talabalar xuddi "level" bosqichlarini bosib o'tgan o'yinchiga o'xshab, har bir muvaffaqiyatdan so'ng yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

## XULOSA

Shu tarzda ishlab chiqilgan metodika nafaqat raqamli ta'lim muhitini interfaol qiladi, balki talabalarning motivatsion holatini barqaror ushlab turadi. Talaba passiv bilim oluvchidan faol yaratuvchiga aylanadi. Shu jarayonda Richpeace CAD dasturi – nafaqat dizayn vositasi, balki o'quvchi tafakkurini shakllantiruvchi intellektual muhit sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim tizimi raqamli pedagogik muhit sharoitida talabalarning ijodiy va texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun yangi metodik yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Richpeace CAD dasturini o'qitish metodikasini vizual modellashtirish asosida takomillashtirish ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шарипов К. А. Таълимни трансформация жараёнларида инновацион таълим ва рақамли технологияларнинг қўлланилиши.
2. Hamidov J. A., Murodova A. Yo. Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. "Raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-oktabr.
3. Li, J., & Chen, Z. (2020). Application of Richpeace CAD System in Textile and Garment Education. International Journal of Fashion Design and Technology, 13(2), 117–124.
4. Qodirova M. R. (2022). 3D modellashtirish texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati. "Texnologik ta'lim va dizayn", №2, 39–44-betlar.
5. Choi, Y., & Park, H. (2021). Comparative Study of CLO3D, Gerber, Optitex and Richpeace CAD Systems. Journal of Fashion Technology and Education, 19(4), 211–220.
6. Zebo T. X., & Rahmatova B. K. (2023). "Final Learning Practices" metodi orqali talabalarda ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish. "Pedagogik innovatsiyalar" jurnali, №2, 73–80.
7. Bekchanova D. (2023). Texnologik ta'limda interfaol metodlar samaradorligi. "Oliy ta'limda innovatsiyalar" jurnali, №3, 41–47.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.